



## TOHIR VA ZUHRA ZIYORATGOHINI GEOGRAFIK JOYLASHUVI

*Safarov I.B.*

*Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

*Chorshamiyev R.R.*

*Qarshi MII akademik litseyi o'qituvchisi*

*To'laganov N.U.*

*Qarshi davlat universiteti talabasi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada Tohir va Zuxra ziyoratgohini geografik joylashuvi va ziyoratgohni tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi kunda ziyoratgohda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Ziyorat, ziyoratgoh, ziyorat turizmi, muqaddas, an'ana, sacral, qabr, afsona, qadimiy, sig'inish, tog'

G'uzor tumani shimolida Qarshi-Qamashi yo'lining 25-kilometridagi Do'ng qovchin qishlog'ida Qarshidan kelaverishdagi yo'Ining shundoq o'ng tomonidagi qop-qora changalzorda Tohir va Zuhraning qabri joylashgan. Tuman aholisi tasavvurida Tohir va Zuhra afsonasi bilan bog'liq voqealarni ayni shu joyda bo'lganligiga hech kim shubha bilan qaramaydi. Xalq orasida e'zozlanib kelingan "Tohir va Zuhra" dostoni "O'zbek film" studiyasi tomonidan yaratilgan ajoyib ekran asari aslida tuprog'imizning aynan shu joyida suratga olinganini ko'plar bilmasa kerak. "Sharq yulduzi" jurnalining 1988 yil 8-sonida taniqli yozuvchi YE. Berezikov Tohir va Zuhraning qabriga daxldor "Tirik afsona" asarini chop etdi. Muallif Do'ng Qovchinlik qariyalarning hikoyalari asosida ikki yoshning go'zal sevgisi to'g'risida ajoyib asar yaratgan.

Shu qishloqlik Abdi Otayorovning hikoya qilishicha, Tohir va Zuhraning qabri bir-biriga o'ralib, chirmashib ketgan changallar bilan qoplangan. "Yoshligimizda qabr yonidagi tut daraxtining ustiga chiqqanmiz va qo'shchi bo'lib ishlaganimizda ham bu yerda ko'p yurganmiz. Keyinchalik qabr atrofida o'sgan garovdan gavron kesib olardim, (gavron – omochga qo'shilgan xo'kizni haydash uchun ishlatiladigan tayoq) Tohir va Zuhra mozori avliyo sanalsada ziyoni yo'q edi. Urushdan keyin changalzorning shunday yonida paxta brigadasi uchun dala shiyponi qurildi. Kolxozning o'sha paytdagi raisi Qurbon Begimqulov bu joyni avliyo joy deb atab, tez-tez mol so'ydira boshladi. Shundan keyin odamlar bu ziyoratgohdan qo'rqaqadigan



bo‘lishdi. Biror kasallik tuzalavermasa, changalzorga sig‘inib mol so‘yish an’ana bo‘ldi”.

Marhum Haydar boboning hikoya qilishicha: “Inqilobdan keyin Tohir va Zuhra qabriga munosabat har xil bo‘lgan. Xalq ardoqlab kelgan qabristonni eskilik sarqiti deb qarovchilar ko‘paygan. Eng dahshatlisi changalzorga uch marta o‘t qo‘yib yuborilgan. Qarshilik Mirzo Qurban ismli o‘qituvchi eskilikka kurashuvchi sifatida bu changalzorga birinchi bo‘lib o‘t qo‘ygan. Ilgari changalzor oq, qizil va rangli o‘rama gullar bilan bezanib turardi. Gullarni kim ekmasa va parvarish qilmasada juda go‘zal manzara kashf etardi. Changalzor yondirilgach, gullar butunlay o‘smay qo‘ydi. Oxirgi marta changalzorga o‘t ketishi 1975 yilda sodir bo‘lgan. Qishloqlik odamlar orasida yurgan gaplarga qaraganda falokatning ro‘y berishiga changalzorning avliyoligi sabab bo‘lgan”.

Yana bir taxmin changalzor oldidan Muborak-Yakkabog‘ gaz quvuri o‘tkazilayotgan bir paytda quvur qaziyotganlardan biri og‘ir betob bo‘lib vafot etadi. Shunda bu changalzorni akasining o‘limiga sababchi deb bilgan vafot etgan kishining ukasi ataylab o‘t qo‘yib yuborgan. Tohir va Zuhra qabrining shimol tomonidagi 400-500 metr masofada joylashgan Omon ota tepaligi A. Otayorovning aytishicha, tarixiy qo‘rg‘onning qoldig‘idir. Hozirgi kunda bu tepalik qabristonga aylantirilgan.

Qariyalarning aytishlaricha qabr qazish paytida tuproq ostidan turli xil buyumlar yog‘och ustunlar chiqqanligiga guvoh bo‘lishgan. Tepalikning o‘rtasida katta hovuz bo‘lgan, mana shu qo‘rg‘on Tohir va Zuhra yashagan shahar degan rivoyatlar bor. Qishloq keksalari hikoyalariga qaraganda, Do‘ngqishloq O‘rtta Shahritatar (ayrimlar shahritotar deb aytishadi) qadimgi shahar bo‘lgan. Keksa o‘qituvchi Xudoyqul To‘rayevning aytishicha, urush yillari shu qishloqdagi kolxozni boshqarganlardan biri Bozor Elmurodov ana shu og‘ir yillarda kolxozchilar bir tepalikni tekislab dala shiyponi qurbanligini gapirib bergen. Qurilish uchun tepalikni tekislayotganda ular katta bir tosh bo‘lagiga duch kelishgan. Undagi arab imlosida yozilgan yozuv kolxozchilarni qiziqtirib qoladi va o‘qib ko‘rish uchun qishloq mullasi Nazar eshonni olib keladi. Mulla yozuvni o‘qib ko‘rib, bu Shahritatar darvozasining peshtoki ekan, deb tushuntiradi. Shuningdek, tuproq, ostidan juda katta ketmon topiladi. Aytishlaricha, ketmon dastasi o‘rniga omochning bo‘yinturug‘ini kiritib ko‘rishganda bo‘yinturuq ketmon dastasi atrofida aylanib qolgan ekan. Odamlarning eslashicha, shiypon qurilgan joy hozirda buzilib tekislanib ketgan. Bu Do‘ng Qovchin qishlog‘ining eski va yangi o‘rnini taxminan o‘rtasida bo‘lgan. Shundan kelib chiqqan holda: “Tatarlar, tatarlar Tohir do‘nggin



sotarlar” kabi xalq og‘zida yurgan ibora ham shahri tatarlar Tohirni qyinoqqa solganligi haqida to‘qilgan degan taxminlar bor.

1950-yil shu qishloqda sobiq “Kommunist” o‘rtta maktabining binosi qurildi. Yangi maktab uchun bino qurilishi qishloq, tuman madaniy hayotida ham katta voqeа bo‘lgan. Maktabning o‘sha paytdagi direktori, marhum Najmiddin Muhiddinovning xotirlashicha maktab binosi poydevoriga pishiq g‘isht qidirib topish, uni shahardan tashib keltirish muammosini qanday hal qilish to‘g‘risida bosh qotirib yurgan paytda maktabning qorovuli keksa chol maslahat berib qoladi. U pishiq g‘ishtni qayerdan kovlab olish mumkinligini ko‘rsatadi. Direktor g‘ishtning konini borib ko‘rgach maktabning yuqori sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilari qazish ishlariga jalg etiladi. Kutilmaganda maktab qurilayotgan binoning yonginasida juda sifatli “chor g‘isht” (kvadrat shakldagi g‘isht) koni topiladi. Ma’lum bo‘lishicha bu g‘ishtlar Omon ota qo‘rg‘onini yaqinidan qal’aga suv olib keladigan quvurdan buzib olingan ekan. Bu quvurdan qadimda qal’aga Qashqadaryoning yuqori oqimidan suv kelib turgan.

Qarshidan Do‘ng Qovchin, Qoratikan qishlog‘igacha bo‘lgan qadimgi yo‘lga 1962 yili asfalt yotqizilib avtomobil yo‘li quriladi. Keyinchalik bu yo‘l Qamashi tumanigacha davom ettiriladi. Endilikda bu yo‘l oltita tuman: G‘uzor, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog‘, Shahrisabz, Kitobni viloyat markazi Qarshi shahri bilan bog‘lovchi muhim magistralga aylandi.

Tohir va Zuhra qabristonini obodonlashtirish masalasiga birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov Qashqadaryo viloyati hokimi bo‘lgan davrda katta e’tibor bilan qaradi. U kishining tashabbusi bilan 1991-1992 yillarda Tohir va Zuhra qabristoni obodonlashtirildi. Bu yerda katta qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada ziyoratgoh chiroqli xiyobonga aylandi. Ziyoratgohga Tohir va Zuhra afsonasidagi voqealarga asoslangan asar qahramonlari haykallari majmuasi, favvora bunyod etilib, atrofga har xil manzarali daraxtlar ekildi. Endilikda bu hudud sayohatchilar diqqatini o‘ziga tortadigan xiyoboniga aylandi. Tohir va Zuhra ziyoratgohiga kiraverishda marmar toshda shunday yozuv bor: “Tohir va Zuhra sevishganlar xiyoboni O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan”. Shunday ekan tirik haqiqat bo‘lgan xalqimizning bu afsonasini yod aylab, uni asrab- avaylashimiz zarur. Hozirda G‘uzor va boshqa tumanlardan nikohdan o‘tayotgan yosh kelin kuyovlar bir marta shu yerga kelib Tohir-Zuhra qabriga gul qo‘yib sevishganlarni xotirlab duoi-fotiha qilib ketishadi. So‘ngi tadqiqot ishlariga qaraganda ziyoratgoh haqida ma’lumotlarni qaytadan ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda.



Qadimda Shahrisabz tog‘larida erigan qorlar Iskandarko‘l va Amir Temur g‘ori atrofiga yig‘ila borib Katta O‘radaryoni tashkil etib, Boshcharbog‘ tog‘laridan boshlangan Kichik O‘radaryo bilan G‘uzor tumanining Pachkamar mavzesiga kelib birlashgan. Ikki daryo qo‘shilishidan G‘uzor daryosi paydo bo‘lgan. G‘uzordan boshlangan bu daryo 30 kilometr masofani bosib o‘tgach, Do‘ng Qovchin qishlog‘idan o‘tib Tohir va Zuhra ziyyaratgohidan 2 kilometr narida Qashqadaryoga quyilgan. Shuning uchun ham daryolar o‘rtasida joylashgan bu joy qadimdan tabiatи xushmanzara va insonlar yashashi uchun qulay bo‘lgan.

### **ADBIYOTLAR RO’YXATI**

1. А.Эргашев Ғузор меъморчилик тарихи. Тошкент. 2019 й
2. P.R.Qurbanov, I.B.Safarov, “QASHQADARYO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZIMI”.Qarshi – 2022
3. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.
4. Safarov I. B., Rasulov F. I. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KOSON DISTRICT) //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 189-191.
5. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. RECREATIONAL AND TOURISTIC OPPORTUNITIES OF UZBEKISTAN’S MOUNTAINS // Экономика и социум. – 2023. – №.11(114). – С. 303-312.
6. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА ВЕРХНЕКАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.
7. Safarov I. B., Omonullayev O. H. HAZRATI BASHIR QISHLOG‘INING ZIYORAT TURIZIMI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 4 SPECIAL. – С. 193-196.